

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

**5150900-Dizayn (kostyum) va 5111000– Kasb ta'limi (5150900 –Dizayn
(kostyum)) ta'lim yo'nalishlari negizidagi:**

5A150901-Dizayn (turlari bo'yicha)

**magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus (ixtisoslik)
fanlaridan**

D A S T U R

Toshkent - 2021 y.

Dastur 5A150901-Dizayn (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishlarining 2019/2020 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejalaridagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

TUZUVCHILAR:

A.B.Kasimova

- TTYESI, «Kostyum dizayni» kafedrasi mudiri, t.f.f.d. PhD, dotsent.

M.Sh.Shomansurova

- TTYESI, «Kostyum dizayni» kafedrasi t.f.f.d. PhD, dotsent.

Dastur “Yengil sanoat texnologiyasi va dizayn” fakultetining 2021 yil ___ iyundagi № __ son Kengashi yig'ilishida muxokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Jahon moliyaviy inqirozining ta'sirini kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun bizda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Avvalambor keyingi davr mobaynida mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatining puxta poydevorini, moliya-bank tizimining ishonchli boshqaruv mexanizmlarini o'z vaqtida shakllantirib va mustahkamlab olganimiz bunga kafolat va asos bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi - talabalar bilimlarini chuqurlashtirish dizaynerlik va konstruktorlik echimlarini amaliyotga tadbiiq qilish, ishlab chiqarishning qisqa jarayonlar texnologiyasi, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishni nazarga olgan holda kompyuter texnikasidan oqilona foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

5150900 – Dizayn (kostyum) ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A150901-Dizayn (Kostyum dizayni) magistratura mutaxassisliklariga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 5 ta ixtisoslik fanlari bo'yicha: “Kostyum tarixi”, “San'at tarixi”, “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”, “Tikuv buyumlari texnologiyasi”, “Feshion menejment va marketing” test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

KOSTYUM TARIXI fani bo'yicha:

“Kostyum tarixi” fanining maqsad va vazifalari. Kostyum va naqsh tarixi. Kostyum va naqshni paydo bo'lishi va ularni rivojlanishi. Kostyumlarni ibtidoiy turlarini tuzilishini tarixiy jarayoni.

Qadimgi Misr kostyumi. Qadimgi Podsholik, O'rta Podsholik va Yangi Podsholik kostyumlari. Kostyum shakli, ranglari, konstruktiv echimi va ijtimoiy belgilari.

Old Osiyo xalqlari kostyumi. Bobil – Ossuriya va Fors kostyumlari. Erkaklar va ayollar kostyum turlari.

Hind kostyumi. Hindiston san'ati, uning xarakterli xususiyatlari. Mato to'qish san'ati, naqshlari va turlari. Xitoy kostyumi. Xitoy san'atida naqsh, rang; xitoy ramzlari. O'rta asr feodal xitoy kostyumi. Yaponiya kostyumi. Yapon san'atidagi kompozitsiyaning xarakterli tamoyillari.

Qadimgi Yunon kostyumi. Qadimiy Rim kostyumi.

Roman uslubi kostyumi (IX-XIII asrlar). Davr va badiiy uslublar tavsifi. Gotika uslubi kostyumi (XIII –XV asrlar). Go'zallikning estetik timsoli.

Evropa Uyg'onish davri va badiiy uslublari tavsifi. Estetik timsolni o'zgarishi. Italiya kostyumi. Ispaniya kostyumi. Frantsiya kostyumi. Olmoniya kostyumi.

Barokko uslubidagi Evropa kostyumi. Davr va badiiy uslub tavsifi.

Rokoko uslubidagi Evropa kostyumi. Davr va badiiy uslub tavsifi.

Klassitsizm uslubidagi kostyum. Kiyimning asosiy shakllari va assortimenti. Ampir uslubi. XIX- asrning ikkinchi yarmi kostyumi. 1830-1860 yillardagi modaning keskin o'zgarishi. 70-80 yillar kostyumi.

Kostyumning demokratizatsiyalashi. Ayollar kostyumida modern uslubining ravnaq topishi. XX- asrning ikkinchi yarmi kostyumi. Urushdan keyingi davrda yangi estetik timsol va modani keskin o'zgarishi. XX- asr modali uslublari.

O'rta Osiyo Antik davr kostyumi. O'rta Osiyo halqlarining antik davrda tarixiy ta'diri va turmush tarzi, san'ati.

O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar kostyumi. Ilk feodal o'rta asrlikni san'ati va kostyumi. Ilk o'rta asrlar erkaklar va ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi, so'llanilgan materiallari.

O'rta Osiyo kech o'rta asrlar kostyumi. O'rta Osiyo kech o'rta asrlar davri va badiiy uslublari tavsifi. Kitob miniatyurasi tasviriy san'atining ravnaq topishi. Go'zallikning estetik timsoli. O'rta Osiyo kech o'rta asrlar erkaklar va ayollar kostyumida qo'llanilgan materiallari, ichki va ustki kiyim turlari, bosh va oyoq kiyimi, bezaklari va taqinchoxlari.

O'zbekiston badiiy gazmollari. O'zbekiston abr gazmollari. Kiyimlarni tikishda ishlatiladigan matolar. Materiallar ranglari va naqshlari.

XIX-XX asr boshidagi o'zbek kostyumi. Erkaklarning milliy liboslari. Ayollarning milliy liboslari. Ichki va ustki kiyim turlarining shakli, bichimi va konstruktiv-dekorativ echimi. An'anaviy kiyim bichiqlari. O'zbekiston zargarlik san'ati. O'zbek milliy kostyumidagi mintaqaviy va ijtimoiy belgilari. Toshkent-Farg'ona, Samarqand-Buxoro, Qashqadaryo-Surxandaryo, Xorazm va Qorasalpoq milliy kostyumlarining konstruktiv-dekorativ echimi va o'ziga xos xususiyatlari. Marosim kiyimlari.

Qozoq kostyumi. Qirg'iz kostyumi. Tojik kostyumi. Turkman kostyumi. Erkaklar va ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llanilgan matolari. Milliy liboslarning o'ziga xos xususiyatlari.

SAN'AT TARIXI fani bo'yicha:

San'atning paydo bo'lishi va rivojlanishi. San'atning inson faoliyatidagi o'rni. San'at turlari: rangtasvir, grafika, kompozitsiya, haykaltaroshlik, amaliy dekorativ san'at va me'morchilik. Fanning "Loyihalash" va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyoti bosqichlari, uning rivoji, Altamira (Ispaniya) va Fon de Gom (Frantsiya) g'orlaridagi devoriy sur'atlari. Mahobatli me'morchilikning shakllanishi. Paleolit davrida amaliy-dekorativ san'at. Kulolchilik va haykaltaroshlik san'ati. Sanatdagi o'ziga xos xususiyatlari.

Qadimgi Sharq sanatining jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni. Qadimgi Misr san'atining o'ziga xos xususiyatlari.

Yangi podsholik davri san'atida ibodatxonalar kompleksining uch turini shakllanishi. Fivadagi Karnak va Luksor ibodatxonalari. Deyr-el Baxridagi fir'avn ayol Xatshepsut ibodatxonasi. Abu-Simbeldagi Ramzes II ibodatxonasi. Haykaltaroshlik va rangtasvir: Qadimgi Misr releflarining xilma-xilligi. Inson

qiyofasi tasvirida o'ziga xos qat'iy ustunlari, relief, rangtasvir, yumaloq haykaltaroshlikda qo'llanilishi. Haykaltaroshlikda portretning vujudga kelishi va rivoji.

Old Osiyoda qadimiy davrlardagi xalqlar va davlatlar. Bu xalqlar va davlatlar san'atidagi o'xshashlik va o'ziga xos tomonlari. Shumer va Akkada san'ati tarixi. Ikki daryo oralig'i (Mesopatamiya) san'ati. Ossuriya san'ati. Ossuriya davlati va uning madaniyatining taraqqiyoti. Ossuriya saroy me'morligi. Xorsaboddagi «Sargon II saroyi». Zikkurat. Devor bezagidagi mahobatlik, haykaltaroshlik.

Yunon san'ati tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari. Me'morlik. Yunon ibodatxonalarining turlari, ularning tuzilishi. Me'morlikda orderlarning ahamiyati. So'nggi klassika me'morligi.

Haykaltaroshlik. Qadimgi Yunon san'atiga xos ilk haykaltaroshlik namunalari. Ularga xos xususiyatlari, an'analari.

Qadimgi Rim tarixi va san'atidagi davriy bosqichlar. Rim va Yunon madaniyatining o'ziga xos o'xshashligi va farqi.

Sharq va g'arbda o'rta asrlar tarixining rivojlanishidagi bosqichlar. Vizantiya san'atining o'ziga xos tomonlari. Me'morchilik.

Roman davri ta'rifi. G'arbiy Evropa o'rta asr ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayoti xususiyatlari. «Varvarlar» davri yodgorliklari. Evropa san'ati taraqqiyotida Rim san'atining ahamiyati va bu san'atning «varvarlar» hayotiga kirib kelishi ta'rifi. Roman tasviriy san'ati xususiyati.

G'arbiy Evropada o'rta asr san'ati tarixi. Gotika san'ati. «Gotika» iborasining hayotga kirib kelishi va uning ta'rifi. Gotika davri siyosiy iqtisodiy va madaniy hayoti va ularning san'atdagi ifodasi.

VII- asrda g'arbiy Evropa san'ati. Italiya san'ati. Barokko uslubining shakllanishi va rivoji.

Ispaniya va Frantsiya san'ati. Ispaniya san'atining xalqchilligi, rangtasvirda eng gullagan «oltin» davri va uning xususiyatlari.

XVIII- asrda G'arbiy Evropa san'ati. Frantsiya, Italiya, Angliya, Germaniya san'ati. XIX- asr birinchi yarmida g'arbiy Evropa san'ati. Germaniya, Frantsiya, Ispaniya, Angliya san'ati. XIX- asr oxiri va XX- asr boshlarida Evropa san'ati. XIX- asrda Frantsuz san'ati L.David ijodi. A.Gro, T.Jeriko, E.Delakrua – ijodi va faoliyati.

Qadimgi O'zbekiston hududida san'at taraqqiyotining o'ziga xos yo'li. Tasviriy va amaliy san'at. O'zbekiston hududida dastlabki istilolar natijasida vujudga kelgan mustaqil davlatlar davrida san'at va madaniyat.

O'zbekiston hududida O'rta asrlar san'ati. haykal, portret, releflar va ularning ishlanish texnikasi, mavzu va syujeti. Yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi, rassomchilik, monumental rangtasvir san'ati namunalari xarakteri syujeti, echilishi.

O'zbekiston hududida Arab istilosi va undan keyin paydo bo'lgan mustaqil davlatlar davrida san'at va madaniyat.

Temuriylar davri san'ati. Alisher Navoiy. Shaxrisabzdagi Oqsaroy va Samarqandagi Ko'ksaroy. Ulug'bek rasadxonasi. Bibixonim maschiti. Buxorodagi

Kalon madrasasi qurilishi. Shohi Zinda, Go'ri Amir, Hoji Ahmad Yassaviy maqbarasi. Temuriylardan keyin paydo bo'lgan xonliklar davrida O'zbekiston hududida san'at va madaniyat.

XVIII-XIX asr boshlarida O'zbekiston hududida san'at va madaniyat.

XX- asr birinchi choragida O'zbekiston san'ati va madaniyati.

Mustaqil O'zbekiston san'ati va madaniyati. XX-asr oxiri va XXI- asr boshlarida yashab ijod qilayotgan O'zbekiston xalq rassomlari Baxodir Jalol, Akmal Ikromjonov, Alisher Mirzaev, Akmal Nur ijodlari va faoliyatlari.

TIKUV BUYUMLARINI KONSTRUKTSIYALASH fani bo'yicha:

Kiyim loyihalashga doir dastlabki ma'lumotlar va konstruktsiyalash uslublari. Ko'plab tikiladigan kiyimlarni ishlab chiqish xususiyatlari. Kiyim to'g'risida asosiy tushunchalar. Kiyim funksiyasi. Zamonaviy kiyim assortimenti va tavsifi. Maxsulot klassifikatorida tikuv buyumlarining tasnifi va kodlanishi.

Kiyim tashki shakli, sifat ko'rsatkichlari va kiyimga qo'yiladigan talablar. Turli zamonaviy kiyimlar konstruktiv tuzilishi va tashqi shakli xarakteristikasi. Kiyim asosiy siluet va bichimlari. Kiyim shakli, konstruktsiyasi va material xossalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Kiyim aniqlovchi asosiy belgilar. Sifat ko'rsatkichlar va kiyimga qo'yiladigan talablar. Tananing o'lcham belgilarini olish uslubiyati. O'lchamlar xili va dasturi. O'lchash usullari. Odam tanasining o'lchamli tavsifi.

Axolining razmerli tipologiyasi va razmerlar antropometrik standartlarini tuzish printsiplari. Etakchi razmer o'lchovlari. Befarqlik intervali. Zamonaviy razmerli tipologiya va katta yoshidagi aholiga mansub razmerli standartlar. Tipaviy qomatlar tizimini tuzish asoslari. Kiyim razmerlarini belgilash. Bolalar razmerli tipologiyasini tuzish xususiyatlari. Kiyim shakli, o'lchamlari va konstruktsiyasining xususiyatlari.

Kiyimning ichki shakli va o'lchamlari. To'kislik qo'shimchalari. Kiyimda tashqi va ichki o'lchamlarning o'zaro bog'lanishi. Kiyim paketining qalinligiga qo'shimcha. Kompozitsion qo'shimchalar.

Kiyimning shakli va konstruktiv xususiyatlari. Kiyimning shakliy xarakteristikasi. Konstruktiv chiziqlar (choklar). Dekorativ chiziqlar. Kiyim bichimi. Kiyimning konstruktiv xarakteristikasi.

Kiyim konstruktsiyalash uslublari. Ularning umumiy tavsifi va tasnifi. Kiyim konstruktsiyalashga oid yuzalar yoyilmasini qurishning umumiy tamoyillari. Kiyim detallarining yoyilmasi va ularning tasnifi. Kiyim loyihalashda ishlatiladigan konstruktiv parametrlar.

Bazaviy asoslar konstruktsiyalash uslublari va konstruktsiyalar xarakteristikasi. Konstruktsiyalarning bazaviy asoslari to'g'risida tushuncha va ularning tasnifi. SNIIShP usuli bo'yicha ishlangan konstruktsiyalarning bazaviy asosiga xos xususiyatlar.

EMKO xususiyatlari. O'tkazma yeng konstruktsiyasining xususiyatlari va konstruktsiyalash usullari. O'tkazma yenglar shakli va tashqi ko'rinishining

tasnifi. Tipaviy yeng konstruksiyasiga qoyiladigan talablar. Yeng qiyamasini kirishtirib o'tqazish. Turli yoqalarning konstruksiyasini tuzish xususiyatlari.

Kiyim nuqsonlari va ularni bartaraf etish usullari. Kiyim nuqsonlari tasnifi. Konstruktiv nuqsonlar. Texnologik nuqsonlar. Modellar nuqsonlari. Konstruktiv nuqsonlarni bartaraf etish yo'llari, paydo bo'lish sabablari. Konstruktiv nuqsonlarni tuzatish usullari.

Kiyimlar yangi modellarini loyihalash usullari. Bazaviy asoslar yordamida yangi modellar konstruksiyalarini tuzish. Yangi model tuzilishining taxlili.

Bazaviy konstruksiya shaklni o'zgartirmasdan konstruktiv modellar usullari. Vitachka yo'nalishini o'zgartirish. Detallar bo'linishi. Taxlamalarni loyihalash xususiyatlari.

Loyihalash bosqichlari. Texnik topshiriq. Texnik taklif. Eskiz loyixa. Texnik loyixa. Ishchi xujjatlar.

Andozalarni rasmiylashtirishning texnik talablari. Asosiy, hosila va yordamchi andozalarni ramiylashtirishning texnik talablari. Kiyimni tipaviy loyihalash. Tipaviy loyihalashning maqsadi.

Kiyim detallarini standartizatsiyalash usullari. Kiyim detallarini unifikatsiyalash usullari. Kiyim yangi modellarini rejali assortimentli seriyalar orqali loyihalash asoslari.

TIKUV BUYUMLARI TEXNOLOGIYA SI fani bo'yicha:

Tikuv buyumlari texnologiyasining umumiy asoslari. Kiyim to'g'risida umumiy ma'lumot. Buyumlarni ishlab chiqarish bosqichlari.

Tajriba sexi konstruktorlar guruxining vazifalari. Materiallardan tejimli foydalanish to'g'risida umumiy ma'lumot. Gazlama chiqindi turlari. Andaza yoymasini bajarishga qo'yiladigan talablar. Tajriba sexining texnologik guruxi. Modellar ishlab chiqarishga tushirishni takomillashtirish yo'llari.

Gazlamalarni bichishga tayyorlash. Tayyorlov sexning vazifalari. Gazlamalarni qabul qilish, o'rovidan ochish va saqlash. Gazlamalar sifatini tekshirish va o'lchash. Sifati tekshirilgan gazlamalarni saqlash. Gazlamalarni to'shamaga mo'ljallab xillash. Gazlamalarni tayyorlash va saqlashning takomillashtirish yo'llari.

Bichish sexining vazifalari. Gazlamaning to'shahga qo'yiladigan talablar. Gazlamalarni to'shah usullari. Gazlama to'shahda qo'llaniladigan asbob-uskunalar. Buyum detallarini bichish. Detallarni komplektlash va nomerlash. Bichish sexining yakunlovchi operatsiyalari. Gazlamalarni to'shah va bichishning takomillashtirish yo'llari.

Kiyim detallarini ip bilan biriktirish usuli. Qaviq turlari va ularni hosil qilish usullari. Qaviq qatorlar, ularni bajarish texnik shartlari va qo'llash jarayoni.

Mashina chok turlari. Birlashtiruvchi choklar. Ziy choklar. Bezak choklar. Yelimlab biriktirish jarayonining mohiyati, elimlab biriktirishning afzalligi va kamchiligi. Turli elimlarning tasnifi. Elim material turlari va ularni qo'llash jarayoni. Elim bilan biriktirish usulini ip bilan biriktirish usuli bilan taqqoslash va uning samaradorligi.

Tikuv buyumlarni namlab-isitib ishlov berish. Namlab isitib ishlov (NII) berishning vazifasi va mohiyati. NII jarayoniga ta'sir etuvchi omillar va ularni o'zaro bog'liqligi. NII berishning parametrlari. NII berishning operatsiyalari, ularning mohiyati va qo'llash jarayoni. NII berish asbob-uskunalari.

Kiyim tikishning texnologik jarayonlari. Tikuv buyumlarga ishlov berish bosqichlari. Kiyim uzellariga ishlov. Kiyim mayda detallarga ishlov berish. Kiyim detallari qirqimlariga ishlov berish. Vitachka turlari va ularga ishlov berish. Kokedkaga ishlov berish usullari.

Ustki kiyimda cho'ntak turlari va ularga ishlov berish.

Chokdagi cho'ntak turlari. Chokdagi listochkali cho'ntakka ishlov berish.

Chokdagi cho'ntakka ishlov berishning takomillashtirish yo'llari.

Qoplama cho'ntakni old bo'lakka ulash usullari. Qoplama cho'ntakni old bo'lakka bostirib tikish. Qoplama cho'ntakni old bo'lakka elimlab yopishtirish.

Shim old bo'lagidagi qiyalama cho'ntakni tikish. Shim yon chokidagi cho'ntakni tikish. Shim ort bo'lgidagi cho'ntakni tikish.

Ichki cho'ntak turlari. Avra gazlamadan listochka qo'yilgan cho'ntak tikish. Avrasidan qo'shma mag'izli ramka hosil qilingan cho'ntak tikish.

Bortga ishlov berish bosqichlari. Bort qotirmasini tayyorlash.

Adipga ishlov berish. Old bo'lakkga adipni ulash usullari.

Yoqalar konstruksiyasi tasnifi. Ostki yoqaga ishlov berish va uni ustki yoqa bilan biriktirish usullari. Yoqani yoqa o'miziga o'tqazish.

Yenglar konstruksiyasi tasnifi. Yeng uchiga ishlov berish usullari, yeng astariga ishlov berish va avra bilan biriktirish. Yengga ishlov berishning takomillashtirish yo'llari.

Buyum astariga ishlov berish va avraga biriktirish. Astarining vazifasi. Astarga ishlov berish usullari. Astarni avraga biriktirish usullari. Elka tagliklarni tayyorlash va yeng o'miziga biriktirish.

Shim taqilmasiga ishlov berish usullari va ularni takomillashtirish yo'llari. Shim yuqori qirqimiga ishlov berish usullari.

Manjetli va manjetsiz shim pochasisga ishlov berish usullari. Shim uzellariga ishlov berish zamonaviy texnologiyasi va asbob-uskunalari.

Yubkaga ishlov berish. Yubka taqilmasiga ishlov berish usullari.

Belbog'li va belbog'siz yubka yuqori qirqimiga ishlov berish

Qaytarma belbog'ni yubkaga ulash. Yubkani yuqori chetiga korsaj tasma ulash. Ulama belbog'ini yubkaga ulash.

Yubka etagiga ishlov berish usullari. Yubka etagiga ishlov berish usullari. Yubka uzullariga ishlov berishni takomillashtirish yo'llari.

Yengil kiyimlarda cho'ntakka ishlov berish. Erkaklar va ayollar ko'ylagida qo'llaniladigan cho'ntak turlari va ularga ishlov berish usullari. Cho'ntaklarga ishlov berishni takomillashtirish yo'llari.

Taqilma turlari va ularni qo'llash jarayoni. Ko'ylak etagigacha bo'lgan taqilmalarga ishlov berish usullari. Yaxlit detaldagi taqilmalar va ularga ishlov berish usullari. Taqilmalarga ishlov berishni takomillashtirish yo'llari.

Kiyimlar sifatini baxolashning umumiy ma'lumotlari. Material va kiyimlar sifatini baxolash usullari. Kiyimlarda uchrashi mumkin bo'lgan nuqsonlar, ularni oldini olish va yo'qotish yo'llari. Kiyim navini aniqlash.

FESHION-MENEJMENT VA MARKETING fani bo'yicha:

Marketing va dizayn jarayonlari. XXI- asrda marketing va menejment tushunchasi. Feshion-marketing fanining vujudga kelish tarixi, marketing fanining hozirgi zamon ta'riflari. Marketing strategiyasi va rejalarini ishlab chikish. Mijozlarni maqsadli auditoriyasini aniqlash.

Marketing tadqiqotlari o'tkazishning maqsadi va yo'nalishlari. Marketing tadqiqotlari o'tkazish usullari va bosqichlari. Bozor sig'imi va uning potentsiali. Aholi daromadlari. Iste'molchilarning xulqatvori. Bozor ulushlarining firmalar o'rtasida taqsimlanishi.

Moda industriyasi segmentlari. Moda ijtimoiy fenomen. Moda industriyasining taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Moda industriyasining faoliyati. Moda maxsulotlarini ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar. Haute Couture" va "Rret-a-porter" to'plamlari. Moda istisodiyoti taraqqiyotining istiqboli.

"Brend" tushunchasi ta'riflari. Brending tarixi. "Brend" va "savdo belgisi". Brend xususiyatlari va turlari. Brendni yaratish bosqichlari. Brending ob'ektlariga ko'ra brendlar turlari. Brendlar kollaboratsiyasi. O'zbekistonda brending rivojlanish tendentsiyalari va marketing kommunikatsiyalar. O'zbek brendlari faoliyati. O'zbek modasi jaxon podiumlarida.

Fashion – bayerning vazifalari. Muvaffaqiyatli bayerning xususiyatlari. Boshqaruv malakalari. Modani bashorat qilish Moda industriyasida moda tendentsiyalarini bashorat qilishning ahamiyati. Modani bashorat etish usullari va bossichlari. Modani bashorat etish bilan shug'ullanuvchi dunyoga mashhur kompaniyalar.

Merchandayzing maqsadi va vazifalari. Moda industriyasida merchandayzing maqsadi va vazifalari. Merchandayzing bo'limi faoliyati. Merchandayzing-bukni tuzish, do'kon intereri, savdo jihozlarning turlari va joylashtirilishi mijozlar psixologiyasiga mos ravishda bo'lishini ta'minlash va rangshunoslik konunlaridan foydalanish.

Savdo do'koni falsafasini ishlab chiqish, va buning natijasida qaridlarning falsafasini (firma kontseptsiyasini) ishlab chiqish. musiqa va yo'ruq'lik merchandayzing vositalar.

Psixografiya. Tovar atributikasini qabul qilish. Hayot shaklini aks ettirish. Insonni shaxs sifatida ichki dunyosini aks ettirish. Iste'molchilarning psixoturlari. Karerachilar, intelligentlar, gedonistlar, mustaqillar, taqlidchilar, meyorchilar.

Shopping tushunchasi va ta'riflari. Tovar sotib olish jarayo'ni. Savdo xodimlariga kerakli qobiliyatlar. Savdo hodimlarining asosiy vazifalari. Savdo hodimlariga qo'yiladigan psixofiziologik talablar. Haridorlarni savdo do'konidan uzoqlashtiradigan sotuvchining hatoliklari. Mijozlarga xizmat ko'rsatish standartlari va qoidalari.

Rang marketingi va rang psixosemantikasi. Ranglarning inson psixologiyasiga ta'siri. Issiq ranglar va sovuq ranglar. Ranglar xarakteristikasi va tarixi. Rangning ramziy ma'nosi. Savdo do'koni intererda ranglarni qo'llanishi.

Savdo do'koni loyihasini tuzish. Vitrina dizaynini yaratish AIDA kontseptsiyasi. Vitrinachilar faoliyati. Vitrinalarni bezatish turlari. Zamonaviy manekenlar turlari va vazifalari.

Moda savdo do'konlarining mahsus tarmoqlari. Keng tarmoqli universal magazinlar. Univermaglar. Kontsessiyalar. Supermarketlar. Diskaunterlar. Outletlar. Moda tovarlari do'konlarining xalqaro tarmoqlari. Xalqaro flagman savdo do'konlari. Dunyoga mashhur flagmanlar. Franchayzing tushunchasi. Reklamaning moda sanoatidagi o'рни.

Magistraturaga kirishda o'tkaziladigan sinov fanlari bo'yicha kiruvchilar bilimini baholash MEZONLARI

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va boshqa meyoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, yuqori malakali yetuk mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida, magistraturaga qabul O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021/2022 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" 2021 yil 22 iyundagi PQ-5157-son qarori asosida amalga oshiriladi.

«Maxsus fanlar»dan magistraturaga kirish sinovlarini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Kirish sinovlari Oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan tasdiqlangan maxsus komissiya a'zolari ishtirokida o'tkaziladi.
2. Kirish sinovlari uchun 2 soat vaqt ajratiladi va belgilangan vaqtda tegishli xonalarda o'tqaziladi.
3. Magistratura mutaxassisliklarining kirish sinovlari tarkibiga kiritilgan mutaxassislik fani uchun 100 ball ajratilgan.
4. Magistraturaga kiruvchilar bilimi 0 balldan 100 ballgacha bo'lgan ballar oraliq'ida baholanadi.
5. Sinov maxsus test ravishda kiruvchining tanlangan mutaxassisligi bo'yicha nazariy bilimi aniqlanadi.
6. Variantlardagi test savollar mutaxassislik fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tegishli bakalavriat yo'nalishi uchun tasdiqlangan dastur asosida tuziladi.
7. Javoblar quyidagi tartibda baholanadi:

Har bir test varianti jami 50 ta savollardan tashkil topib, har bir to'q'ri javob 2,0 ball bilan baholanadi.

Qo'yilgan ballardan norozi bo'lgan talabgor sinov natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida qabul komissiyasining raisiga yoki apellyatsiya

(adolat) komissiyasi raisi nomiga ariza bilan murojaat qilishi mumkin.
Apellyatsiya haqidagi arizani ko'rib chiqish muddati ikki kundan oshmasligi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017 йил, 488 бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо эташимиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2016 йил, 56 бет.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017 йил, 48 бет.
4. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.
5. "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури", Шарк, Тошкент, 1997. 280 б.
6. Smith Sonian. The Definitive History of costume and Style. – USA, New York: DK Publishing, 2012.
7. Rahmatullaeva D, Xodjayeva U, Ataxanova F. Libos tarixi. – T.: Sano-Standart 2015.
8. Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 320 б.
9. М.Н.Мерцалова. Костюм разных времен и народов 1,2 том М.: Академия 2003
10. U.S. Rahmatullaeva, N.M. Mirfayazova. SAN'AT TARIXI. Darslik. TTYESI.. – T.: 2018.-428 bet.
11. Абдуллаев Н.У. Санъат тарихи. Ўқув кўлланма: Икки жилдлик./ Т.К.Қўзиёв умумий тахрири остида.-Т.: “Санъат”, 2001.-192 бет.
12. U.S. Rahmatullaeva, N.M. Mirfayazova. SAN'AT TARIXI. O'quv qo'llanma. TTYESI.. – T.: 2016.-282 bet.
13. Ўзбекистон санъати (1991-2001). – Т.: “Шарк”, 2001. – 237 бет.
14. Н.М.Сокольников. История изобразительного искусства. Т1. М.: «Академия», 2006.-296 стр.
15. Н.М.Сокольников. История изобразительного искусства. Т2. М.: «Академия», 2006. -206 стр.
16. X.X. Kamilova, N.K. Xamrayeva. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. Darslik. – Toshkent: Cho'lpon, 2011 y.- 400 bet.
17. Мартынова А.И., Андреева Е. Г. Конструктивное моделирование

- одежды. Учебное пособие.- М: МГУДТ, 2006 г.- 216 стр.
18. Янчевская Е.И. Аёллар устки кийимини конструкциялаш. Ўқув қўлланма. Т: Ўқитувчи. 1997 й. 287 бет.
 19. Коблякова Е.Б. “Конструирование одежды с элементами САПР”. Учебник.- Москва: Легпромбытиздат, 1988 г.- 464 стр.
 20. М.К.Расулова, В.Г.Исроилова, М.А.Асадуллаяева. Kiyim ishlab chaqarish texnologiyasi. O’quv qo’llanma. T.TTYeSI. 2014yil, 366 bet
 21. Кокеткин П.П. Одежда: Технология-техника, процессы - качество. М: Изд. МГУДТ, 2001г. - 560 с.
 22. М.Ш.Жабборова. Тикувчилик технологияси, Олий ўқув юртлари учун дарслик. Тошкент, «Ўзбекистон», 1994 й. - 414 б.
 23. Ф.Котлер, К.Л.Келлер. Маркетинг Менеджмент 12-е издание. Питер. 2009.-815 стр.
 24. Fashion Merchandizing Virginia Grose, AVA Publishing SA 2012
 25. А.Пименов. Хочу- Вижу,изд. Омега, Москва. 2010.
 26. Интернет маълумотлари